



PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKSIYA BIRLIGINI TA'MINLOVCHI METODIK TIZIMNI ISHLAB CHIQISH

Teshaboyev Akramjon Yuldashevich

Andijon Davlat Chet Tillari Instituti Ijtimoiy gumanitar fanlar,
pedagogika va psixologiya kafedrası pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21259188>

Annotatsiya. Tezida pedagogik diagnostika va korreksiyanı yagona, uzluksiz jarayon sifatida birlashtiruvchi metodik tizimni ishlab chiqish masalasi ko'rib chiqiladi. Muallif diagnostika va korreksiya amaliyotda ko'pincha bir-biridan ajratilgan holda qo'llanilishi ta'lim jarayoni samaradorligini pasaytirishini asoslaydi. Taklif etilayotgan metodik tizim uch bosqichni-diagnostik, tahliliy-loyihaviy va korreksion-refleksiv bosqichlarni qamrab oladi, uning yaxlitligini esa refleksiv qayta aloqa mexanizmi ta'minlaydi. Tizimning ilmiy yangiligi diagnostika va korreksiyanı o'zaro kirib boruvchi integrativ jarayon sifatida tashkil etishida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: pedagogik diagnostika, korreksiya, metodik tizim, refleksiv qayta aloqa, tsiklik jarayon, bo'lajak o'qituvchi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchining kasbiy faoliyati o'quvchini nafaqat baholash, balki uning rivojlanishidagi kamchiliklarni aniqlash va o'z vaqtida bartaraf etishni ham talab etadi. Biroq pedagogik amaliyotda diagnostika va korreksiya ko'pincha bir-biridan ajratilgan, mustaqil bosqichlar sifatida qaraladi: o'qituvchi o'quvchining holatini aniqlaydi, ammo olingan diagnostik ma'lumot ko'p hollarda aniq korreksion harakatga aylanmasdan qolib ketadi. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini pasaytiradi va diagnostikaning asosiy vazifasi-ta'limni takomillashtirishga xizmat qilish-amalga oshmaydi.

Mazkur tezisning maqsadi-pedagogik diagnostika va korreksiyanı yagona, uzluksiz jarayon sifatida birlashtiruvchi metodik tizimni ishlab chiqishning nazariy asoslari va tuzilmasini asoslashdan iborat.

Tadqiqotda nazariy usullar majmuasidan foydalanildi: ilmiy-pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish, umumlashtirish va qiyosiy tahlil, tizimli-strukturaviy yondashuv hamda modellashtirish. Adabiyotlar tahlili "pedagogik diagnostika" va "korreksiya" tushunchalarining mohiyatini hamda ularning o'zaro bog'liqligini aniqlashga xizmat qildi. Tizimli-strukturaviy yondashuv diagnostika va korreksiyanı yagona jarayonning o'zaro bog'liq tarkibiy qismlari sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi, modellashtirish usuli esa ushbu ikki jarayonni birlashtiruvchi metodik tizimning tuzilmasini loyihalashga asos bo'ldi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi tahlili shuni ko'rsatadiki, pedagogik diagnostika va korreksiya masalalari ilmiy adabiyotda alohida-alohida yetarlicha

o'rganilgan. Diagnostika sohasida uning nazariy asoslari, tashxislash usullari va vositalari, baholash mezonlari hamda o'quvchining bilim va rivojlanish darajasini aniqlash texnologiyalari ishlab chiqilgan. Korreksiya sohasida esa o'quvchining o'zlashtirishidagi kamchiliklarni bartaraf etishning turli yondashuvlari, individual va tabaqalashtirilgan ta'lim usullari hamda korreksion-pedagogik ta'sir shakllari asoslab berilgan. Shu bilan birga, ushbu ikki jo'nalish ko'pincha o'zaro bog'lanmagan holda, mustaqil tadqiqot ob'ektlari sifatida qaraladi.

Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, diagnostika o'z-o'zicha, korreksion harakatga ulanmagan holda, ta'lim jarayonini takomillashtirmaydi; korreksiya esa aniq diagnostik asosga tayanmasa, o'z maqsadiga erishmaydi. Diagnostika va korreksiya o'rtasidagi bunday uzilish amaliyotda bir qator salbiy oqibatlar olib keladi: o'qituvchi to'plagan diagnostik ma'lumot amaliy qarorga aylanmasdan qolib ketadi, korreksion ta'sir esa ko'pincha o'quvchining haqiqiy ehtiyojiga emas, balki umumiy taxminlarga asoslanadi. Natijada ta'lim jarayoni individuallashtirilmaydi va o'quvchilarning o'zlashtirishidagi qiyinchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmay, to'planib boradi.

Shunga qaramay, ushbu ikki jarayonni bir-biridan ajratilgan holda emas, balki yaxlit va uzluksiz metodik tizimda birlashtirish, ular o'rtasidagi mantiqiy-funksional aloqalarni hamda o'zaro o'tish mexanizmlarini ta'minlash masalasi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Xususan, diagnostika natijalarini korreksion dasturga aylantirish, korreksiya jarayonini diagnostik ko'rsatkichlar asosida tuzatib borish va korreksiya samarasini qayta diagnostika orqali nazorat qilishning izchil metodik apparati mavjud emas. Shuningdek, bu jarayonni bo'lajak o'qituvchilar tayyorlash tizimida shakllantirishning metodik ta'minoti ham yetarlicha yaratilmagan. Aynan shu bo'shliq mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi va diagnostika-korreksiya birligini ta'minlovchi metodik tizimni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Taklif etilayotgan metodik tizim uch o'zaro bog'liq bosqichni qamrab oladi: *diagnostik bosqich* (o'quvchi holatini ilmiy vositalar bilan aniqlash), *tahliliy-loyihaviy bosqich* (diagnostik ma'lumotlarni tahlil qilib, individual korreksion dasturni loyihalash) va *korreksion-refleksiv bosqich* (korreksion ta'sirni amalga oshirish va natijani qayta baholash). Tizimning yaxlitligini ta'minlovchi asosiy mexanizm — refleksiv qayta aloqa (feedback), ya'ni har bir korreksion ta'sirdan so'ng qayta diagnostika o'tkazilib, jarayon takrorlanuvchi (tsiklik) tarzda davom etadi. Shu tariqa diagnostika va korreksiya bir-birini uzluksiz to'ldiruvchi yagona pedagogik jarayonga aylanadi.

Ishlab chiqilgan metodik tizimning ilmiy yangiligi shundaki, u diagnostika va korreksiya ketma-ket emas, balki o'zaro kirib boruvchi (integrativ) jarayon sifatida tashkil etadi va refleksiya ushbu jarayonning harakatlantiruvchi mexanizmi sifatida belgilaydi.

Xulosa. Pedagogik diagnostika va korreksiya birligini ta'minlovchi metodik tizim o'qituvchining diagnostik-korreksion faoliyati samaradorligini oshirishga, ta'lim jarayonini individuallashtirishga va o'quvchilarning o'zlashtirishdagi kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etishga xizmat qiladi. Tizimning nazariy ahamiyati diagnostika va korreksiya yagona, o'zaro bog'liq jarayon sifatida talqin etuvchi konseptual yondashuvni asoslashda, amaliy ahamiyati esa o'qituvchiga aniq va izchil harakatlar ketma-ketligini taqdim etishda namoyon bo'ladi. Refleksiv qayta aloqaga asoslangan tsiklik tuzilma tufayli o'qituvchi har bir korreksion ta'sir natijasini kuzatib borish va zarur hollarda o'z faoliyatini o'z vaqtida tuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ishlab chiqilgan metodik tizimni bo'lajak o'qituvchilar tayyorlash jarayoniga joriy etish ularning kasbiy kompetentligini yaxlit shakllantirishga, diagnostik-korreksion ko'nikmalarni amaliyotga yaqin sharoitda egallashiga imkon yaratadi. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu tizimni raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalari bilan boyitish, shuningdek uni inklyuziv ta'lim sharoitiga moslashtirish istiqbolli yo'nalishlar bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ingenkamp, K. (2011). Pädagogische Diagnostik. Weinheim: Beltz Verlag.
2. Inoyatov, U. I. (2014). Pedagogicheskaya diagnostika v sostave sredstv upravleniya kachestvom obrazovaniya. Obrazovanie cherez vsyu jizn: nepreryvnoe obrazovanie v interesax ustoychivogo razvitiya, (2), 48–52.
3. Leighton, J. P., & Gierl, M. J. (2007). Cognitive diagnostic assessment for education: Theory and applications. Cambridge, UK: Cambridge University Press.
4. Avanesov, V. S. (2002). Osnovy nauchnoy organizatsii pedagogicheskogo kontrolya v vysshey shkole. Pedagogicheskaya diagnostika, (1), 41–43.
5. Bloom, B. S., Hastings, J. T., & Madaus, G. F. (1971). Handbook on formative and summative evaluation of student learning. New York: McGraw-Hill.
6. Rasulov, I., et al. (2015). The importance of pedagogical diagnosis for quality acquisition of knowledge. Advanced Science Journal, 2015(3), 26. <https://doi.org/10.15550/asj.2015.03.026>
7. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.



SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



8.Heitzmann, N., et al. (2022). Learning to diagnose with simulations: Examples from teacher education and medical education. Cham: Springer. <https://doi.org/10.1007/978-3-030-89147-3>

9.Isaev, E., & Safronova, M. (2024). Diagnostics of development in the system of assessment of educational results of primary school children. Cultural-Historical Psychology, 20(4). <https://doi.org/10.17759/chp.2024200402>

